



XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHI O'ZBEK CHARM SAN'ATI AN'ANALARI TERI QOPLANGAN SANDIQ NAMUNASIDA

Madina Ikromova

*San'at asarlari va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash
magistratura yo'nalishining 1-bosqich talabasi,
San'atshunoslik va Amaliy san'at fakulteti,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti,*

Annotatsiya: Teriga ishlov berish va undan buyumlar yasash eng qadimiy hunarlardan bo'lib, paleolit davridan beri ma'lum. XIX asr oxiri – XX asr boshi charmdo'zligi esa o'zining hozirgacha saqlanib qolgan namunalari, ular haqidagi ko'plab turli manbalari bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada charmdo'zlik amaliy san'at turi haqida va uning etalonlarini xususan ushbu davrning noyob timsoli charm qoplangan Turkiston sandig'i misolida batafsil bayon etiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek amaliy san'ati, charm, charmdo'zlik, sandiq, sandiqsozlik.

Аннотация: Обработка кожи и изготовление из неё предметов является одним из самых древних ремёсел, известных со времён палеолита. Кожевенное ремесло конца XIX – начала XX века отличается своими образцами, сохранившимися до настоящего времени, а также многочисленными различными источниками о них. В данной статье подробно излагается прикладной вид искусства кожевенного ремесла и его эталоны, в частности на примере уникального символа данного периода Туркестонского сундука покрытого кожей.

Ключевые слова: узбекское прикладное искусство, кожа, кожевенное ремесло, сундук, сундукостроение.

Abstract: Leather processing and making objects from it is one of the most ancient crafts known since the Paleolithic period. The leathercraft of the late 19th – early 20th centuries stands out for its examples that have survived to the present day, as well as for the numerous and diverse sources about them. This article presents in detail the applied art form of leathercraft and its standards, particularly through the example of the unique symbol of this period the leather-covered Turkiston chest.

Keywords: Uzbek applied art, leather, leathercraft, chest, chest-making.

Charm ishtirokidagi buyumlarning kelib chiqishi

Teri, charm va mo'ynalar. Qadimgi davrlardan beri teri, charm va mo'ynalar kiyim-kechak, ko'rpa va sumkalar kabi buyumlar yasash uchun ishlatilgan. Shuningdek, mebel, baydarka, kitoblar, qutilar yoki sandiqlar kabi turli xil narsalarni yopish uchun ham xom-ashyo sifatida ishlatilgan. Ularning farqlari teri olinadigan

hayvon turlari va tayyor teri, charm yoki mo'ynali mahsulotlarni tayyorlash uchun ishlatiladigan ishlov berish va pardozlash usullarini o'z ichiga oladi⁹.

O'zbekiston amaliy san'atida charmdan yasalgan, badiiy jihatdan bezatilgan buyumlar alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Davlat san'at muzeyida ushbu hunar turining Samarqand va Buxoro ustalari tomonidan yaratilgan kichik, biroq mazmunli kolleksiyasi mavjud. Ular uchun turli hayvonlarning terisi xom-ashyo sifatida xizmat qilib, ulardan yashiltob saxtiyon (baliq) terisi, rangli, yumshoq ko'n va saxtiyon, baxmal charm (zamsh) ishlab chiqarilgan.

Charmdan yasalgan buyumlar bosma naqshlar, kashta, rangli teridan tayyorlangan applikatsiya, o'yma kumush qoplama bezaklar bilan bezatilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand va Buxoro shaharlarining sershovqin bozorlarida mohir charmdo'zlar buyurtmachining ko'z o'ngida ovchilarning baxmal charm ishtonlari, mo'ynali charm etiklar, yostiqlar, hamyonlar, erkaklar belbog'larini chiroyli naqshlar bilan bezatib berishgan. Mohirlik bilan ishlov berilgan charm hamyon namunasi muzey ekspozitsiyasidan joy olgan. Bosma naqsh tushirilgan nafis naqshlar o'sha davrning olimlari va ilohiyot mutaxassislari foydalangan qog'oz solinadigan juzgirlar jildi va muqovasini qoplagan. Ot abzali, sandiqcha, erkaklar belbog'ini bezatish xam charm ishlari ustasining ishi bo'lgan. Buxorolik charmdo'zlar shuningdek chorvadorlar tomonidan yuqori qadrlanadigan chinni idishlarni saqlash uchun mo'ljallangan maxsus g'iloflarni ham yasaganlar. Shunday g'ilofning ajoyib namunasi O'zbekiston Davlat san'at muzeyi kolleksiyasida saqlanmoqda¹⁰.

Shuningdek, mahsulotlarni bezashning ko'plab usullari yaratilgan. Teriga, bosib gul solish, kashta, rangli charmlardan kurok tikish, kumush taqinchoqlar qadash, yo'l-yo'l naqshlar bilan bezash kabilar va shular jumlasidandir.

Turli hujjatlar uchun mo'ljallangan, bosma naqshdor muqovasi yaxlit bezatilgan bejirim juzgirlardan o'sha davrlarda dindorlar va olimlar keng foydalanishgan. Ko'nhilar otning abzallari, egar-jabduqlar, qutilar va erkaklarning kamarlarini charm bilan bezashganlar. Ana shu turdagi buyumlar namunalari ham O'zbekiston Davlat san'at muzeyidan o'rin olgan.

Buxoro ustalari ko'p miqdorda chorvadorlar tomonidan yuksak darajada qadrlangan, chinni buyumlarni asrash uchun charmdan chinniqop mahsus g'iloflar tikishgan. Ana shunday charm g'iloflarning namunasi Davlat san'at muzeyiga qo'yilgan.

Charm chinniqoplar ot, sigir yoki tuya terisidan tikilar edi. Ular bosma yoki o'yma naqsh bilan bezatilib, ko'pincha kumush bezaklar, qora gulli plastinkalar yopishtirilgan. Bezaklar charm xaltalarning shakliga qarab ishlangan. Doimiy ko'chib yuruvchi chorvadorlar uchun charm buyum va xaltalar nihoyatda qulay bo'lgan.

⁹ Ўлмасов А.Ф. Консервация асослари. Монография. – Тошкент: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2022 й, 113 бет.

¹⁰ «Ўзбекистон давлат санъат музейи туплами» китоб-альбоми / Тошкент 2020 –100-б.



Ustalarining yuksak badiiy saviyasi va mahorati samarasi o'laroq, uyro'zg'orda ishlatilgan oddiy buyumlar amaliy san'atning betakror namunasiga aylangan¹¹.

Sandiqsozlikda charmning qo'llanilishi

Sandiqsozlik — sandiq yasash kasbi, sandiq bilan savdo qilish. Ushbu atamaning ta'rifini qimmatli buyumlarni saqlovchi matoh sifatida Alisher Navoiy asarlarida uchratishimiz mumkin¹².

Sandiqning tarixi bir necha ming yillarga borib taqaladi. Ayrim manbalarda u neolit davrlaridayoq ixtiro qilingani aytiladi. Aniq ma'lumotlarga ko'ra, sandiqdan dastlab qadimgi misrliklar foydalangan. Ular orqali qadimgi Yunon va Rim, keyinchalik Yevropa, Osiyo va Rus, shular qatorida O'rta Osiyoga kirib kelgan.

“Chorsu” hunarmandlar bozori rahbari Nosirxon Tursunovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, sandiq turli davrlarda turlicha yasalgan. Yurtimizda sandiq dastlab teridan, keyinchalik chinor, yong'oq, o'rik, qayrag'och yog'ochlaridan, guldor naqsh solib ishlangan. Ammo mamlakatimizning hamma viloyatlarida sandiqning oldiga temir tunukadan patnos qilish urf bo'lgan. Unga tushirilgan gullar va naqshlarning shakli va turiga qarab sandiqning qaysi viloyatga tegishli ekanini aniqlash mumkin. Masalan, vodiyni sandiqlari voha sandiqlaridan guli va naqshi bilan yaqqol ajralib turadi. Qizig'i, bir viloyat boshqa bir viloyat sandig'ining naqshini andoza qilib olmaydi. Ya'ni har bir viloyat sandiqsoz ustalarining ko'p yillik tarixiy an'analari avloddan avlodga meros tariqasida o'tib kelmoqda.

Sandiqni yasash uchun, asosan, bolg'a, randa, poytesha, arra kabi ish qurollari hamda yog'och, uning yuza qismiga naqsh ishlash uchun yumshoq tunuka, rangli bo'yoqlar kerak. Mustahkam va quritilgan xomashyo randa bilan silliqalanadi. Keyin esa qumqog'oz yordamida ishlov beriladi. Tayyor yog'och lak bilan bo'yaladi. Shundan so'ng, sandiqning ost qismi qo'yilib, ustiga yon devorlari qotiriladi, hajmidan kelib chiqib, qopqoq yasaladi. O'ymakor sandiq bo'lsa, iskana va bolg'acha yordamida old qismiga naqsh berilib, yuzasi bo'yaladi. Bundan tashqari, tunukadan ham betakror naqshlar yaratish mumkin.

Ko'pincha sandiqning tag patnosi — ko'tarib qo'yiladigan oyoqchasi bo'ladi. Ayrim sandiqlarning tag patnosi 15-20 sm qilib ko'tarib yasaladi. Qozoq xalqida “sichqon chiqmasligi”, o'zbeklarda “zax bo'lsa, suv bo'lsa, sandiqning tagi chirimasligi” uchun shunday qilinadi.

Ba'zan qizil yog'och, dub yog'ochlaridan sandiqlar yasalgan. Ular juda og'ir bo'ladi. Hozirgi sandiqlarning ikki yonida ushlagich qilingan bo'lsa, u sandiqlarning ikki yonida ikkitadan to'rtta ushlagich bo'lgan. Bu sandiqlarni baquvvat, kuchli

¹¹ Ўзбекистон Давлат Санъат Музеи ноёб хазинасидан/А.Хакимов, В. Файзиева. — Тошкент: Baktria press, 2014. — 233-б.

¹² <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sandiqsozlik>





odamlar ko'tara olgan, xolos. Agar ularning ichida narsa bo'lsa, ko'tarishning umuman imkoni bo'lmagan. Chunki haddan ortiq og'ir bo'lgan.

Qadimgi me'morchilikda uy qurishda uyning to'rida katta sandiq, kichik sandiq uchun alohida joy yasalgan. Boy xonadonlarda ustiga ko'rpa taxlash uchun o'rta katta sandiq, ikki chekkasiga ko'rpacha va yostiq taxlash uchun ikkita kichik sandiq uchun taxmon qurilgan.

Sandiq asosan, yog'ochdan, shuningdek, temir va boshqalardan ham tayyorlanadi. Shakli to'rtburchak, usti qopqoqli bo'lib, zulf in hamda ushlab ko'tarish uchun ikki yoniga halqa o'rnatiladi, yerdan ko'tarilib turishi uchun osti (4 burchagi)ga poya qoqiladi. Sandiqning old, orqa va ostki taxtalari bir-biriga qo'shib mixlanadi, yuzasi pardoatlanadi, burchaklari jilvir bilan silliklanadi, so'ng old tomoni (beti)ga guli chizib olinadi, shu chiziqlarga tunuka o'lchab qoqiladi, so'ngra har xil ranglarda bo'yaladi, hoshiyalariga chakich chekib gullar ham tushiriladi. Qo'chqorak, shash, nayzali, bodomcha va boshqa naqsh mujassamotli Sandiq amaliy san'atning yuksak namunasi hisoblanadi. Qadimda hayvon terisidan, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik va bo'yama tunuka bilan bezatilgan ko'plab yog'och sandiqlar ham tayyorlangan. O'rta Osiyoning Buxoro, Xorazm va boshqa shaharlaridagi bozorlarda maxsus sandiqsozlik rastalari bo'lib, ularda sandiqning turli namunalari yasali sotilgan.

Sandiqning kichik hajmli turi quti deb ataladi. Hozirda ham po'lat, yog'och, plastmassa, laminatdan mebel sandiqlar tayyorlanmoqda.

O'zbekiston uchun an'anaviy charm buyumlar bo'lgan sayyor sandiqlar – "yaxdonlar" qadimdan keng foydalanib kelingan. Yengil va bardoshli, turli o'lchamlarda bo'lgan sandiqlar yo'lda juda qulay edi. Ikkala tomoniga o'rnatilgan egarlar sayohatchining barcha narsalarini ixcham tarzda o'z ichiga olgan. Turargoh vaqtida bunday sandiqlar mebel sifatida ham muvaffaqiyatli xizmat qilgan. Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasining otxona hovlisida joylashgan «San'at va etnografiya» bo'limida XIX asrga oid bu turdagi sandiqlar (yaxdonlarning) turli namunalari ko'rgazmaga qo'yilgan.

Shakli bo'yicha sandiqlar baland sakkizburchak, to'rtburchak shakldadir. Qopqoqlari bilan ular metall qoplama va qulf uchun halqaga ega. Orqa tomonidagi ikkita kamar sandiqni egarga mahkam bog'lash imkonini berardi. Chetlari bo'ylab yaxdon shagren charm chiziqlar bilan mustahkamlangan, ichki qismi esa xonaki bosma gazlama bilan qoplangan.

Shagren – dekorativ yuzasi bo'lgan teri, u yumshoq, sabzavotli va qattiq, ya'ni xom teri ko'rinishida bo'ladi. U ot, qulon va boshqalar terilarining orqa qismidan tayyorlangan. Ko'pincha yashil rangga bo'yalgan.

Vazmin va oddiy ornamentatsiyasi materialning fakturasiga urg'u beradi. Ko'zga tashlanmaydigan utilitar bagaj sandiq ustaning qo'lida nafis buyum ko'rinishini oldi.





Sandiq charm bezaklari

Sandiq odatiy turmush tarzida foydalaniladigan buyum bo'lsada, o'zini alohida betakror amaliy san'at namunasi sifatida ko'rish mumkin.

Charm qoplangan sandiqlar sandiqsozlik an'anasiga ko'ra asos qismi yog'och quti yasashdan boshlanadi.

Sandiqning tashqi qismi qizil tusdagi charm, ichki qismi esa gazlama bilan qoplangan. So'ng esa ip yordamida charmni yog'och asosga tikib chiqilgan. Bunda ip kompazitsiyasi ikki xil vazifani bajaradi:

- charmni yog'och asosga mustahkamlash;
- tikilganda o'zida geometrik shakllarni ask ettirgani va naqshlarga xoshiya sifatida tikilgani sababli estetik jihatdan bejirim chiqishini ta'minlagan.

Yon tomonlari yashil tusdagi feruza rang ingichka teri bilan bezak berilgan. Hatto ushbu yashil charm turli hududlarda turli teksturaga ega bo'lgan. Masalan, O'zbekiston yerlarida g'adir-budur va notekis bo'lsa, Qozog'istonda tekis va silliq yuzali yashil charmdan foydalanilgan. Odatda old tomonida ushbu rangdagi teridan turli naqshli bezaklar tikilgan. Masalan, to'pbarggul, ko'za, turli gulli naqshlar. Bitiruv malakaviy ishi obyektining o'zida esa yashil teridan bodom nusxa naqshli bezak mavjud. Ushbu detal applikatsiya uslubida ishlangan.

O'zbekistonning Buxoro, Toshkent va Qozog'iston charmdo'zlik namunalari kabi albatta tikish uslubi va bezaklari joylarga qarab farqlanadi.

Bunday sandiqlarning boshqa turdagi, metall yoki yog'och bezakli sandiqlardan farqi shundaki narxi qimmatga tushishi edi. Sababi terini tayyorlash va unga ishlov berish uzoq vaqt olgan. O'zida ham funktsional buyum ham nafis san'at namunasini o'zida mujassam etadigan sandiq holiga keltirish ustadan katta mahorat talab etgan.

Faqatgina o'ziga to'q oilalar sotib olish imkoniyatiga ega edilar. Shuning uchun ham sandiqlar boshqa namunalarga nisbatan kam uchrashini sabablash mumkin. Sandiqlar hozirgacha muzeylar, xonadon va kolleksiyalarni bezab turadi.

XULOSA

Maqola charmdo'zlik san'atining boy merosi va O'rta Osiyo madaniy hayotida tutgan o'rnini o'rganishga bag'ishlandi. Charm ishtirokidagi buyumlar tarixi, kelib chiqishi, umuman sandiqsozlik hunari haqida, bezaklari va charm qoplangan buyumlar manbalar yordamida o'rganilib, yoritib berildi.

Ming yillardan buyon turmush tarzimizning ajralmas qismiga aylangan teri materiali va undan tayyorlangan buyumlar tarixi yetarlicha o'rganilmaganligi achinarlidir. Hamda respublika bo'ylab saqlanayotgan charm eksponatlar esa alohida parvarish va ta'mirlashga muhtoj. Izlanish davomida ushbu amaliy san'at turi keng ko'lamli islohotlar zarurati va katta ommaga tanitishlik qanchalik dolzarb ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.





So'nggi vaqtlarda O'zbekistonda olib borilayotgan tashabbuslar orqali bu masalaning ijobiy tomonga o'zgarishiga umid qilaman. Zero ki bu charm qoplangan sandiqlar, bizning boy tarix va madaniy merosimizning yorqin timsolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Ўзбекистон Давлат Санъат Музейи ноёб хазинасидан/А.Ҳакимов, В. Файзиева. – Тошкент: Baktria press, 2014. - 236 б.
2. О‘zbek xalq amaliy san’ati. O'quv qo'llanma / A.Hakimov, Z.Nosirova, B.Nodir. – Toshkent: LESSON PRESS, 2019. – 132 б.
3. «Ўзбекистон маданий мероси» муаллифлик туркуми: «Ўзбекистон давлат санъат музейи туплами» китоб-альбоми / Ф.Ф. Абдухоликов, Э.В. Ртвеладзе, К.Б. Акилова, Ш.К. Абдуллаева, Ж.Я. Илёсов, В.С. Файзиева // Тошкент: «Silk Road Media», «East Star Media» МЧЖ, «Darakchi inform servis» МЧЖ буюртмасига кура, 2020 – 464 б.
4. Ўлмасов А.Ф. Консервация асослари. Монография. – Тошкент: "Fan ziyosi" нашриёти, 2022 й, 144 бет.
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sandiqsozlik>

